

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2024 Vol. 1

www.navoiy-uni.uz

www.goldenscripts.navoiy-uni.uz

BOSH MUHARRIR

Shuhrat Sirojiddinov

**BOSH MUHARRIR
O'RINBOSARI**

Karomat Mullaxo'jayeva

MAS'UL KOTIB

Ozoda Tojiboyeva

TAHRIR HAY'ATI

Karl Rayxl (Germaniya)
 Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
 Seyhan Tanju (Turkiya)
 Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
 Benedek Peri (Vengriya)
 Vahit Turk (Turkiya)
 Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
 Eunkyung Oh (Koreya)
 Nazef Shahrani (AQSh)
 Boqijon To'xliyev
 Muhammadjon Imomnazarov
 Bilol Yujel (Turkiya)
 Qosimjon Sodiqov
 Zulxumor Xolmanova
 Mustafa O'ner (Turkiya)
 Nurboy Jabborov
 G'aybulla Boboyorov
 Kimura Satoru (Yaponiya)
 Imran Ay (Turkiya)
 Aftondil Erkinov
 Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
 Rashid Zohidov
 Otabek Jo'raboyev
 Bulent Bayram (Turkiya)
 Qo'ldosh Pardayev
 Nodirbek Jo'raqo'ziyev
 Oysara Madaliyeva
 Hilola Nazirova

MUNDARIJA**MATNSHUNOSLIK****Oysara Madaliyeva**

Alisher Navoiyning 1480-yillar lirikasi tarixiga
 nazar ("Devoni jadid" yoki "Navodir un-nihoya"
 qo'lyozmalari asosida)

4

Furqat To'xtamuratov

"Gulshani joyid" qo'lyozmalari tadqiqi

40

Parviz Izzatillayev

"Muhokamat ul-lug'atayn" Eron navoiyshunoslari
 talqinida

57

ADABIYOTSHUNOSLIK**Tanju Seyhan**

Ali Shir Nevâ'î'nin *Hired* Redifli 4 Gazeli Üzerine
 Görüşler ve Hired Kavramı

72

Kemal Yavuz Ataman

Nevâ'î Düşüncesinde Cemiyetin İmarı ve
 Nizamı

102

Rıdvan Öztürk

Afganistanlı Şair Âlim Lebib'in Nevali Şiirlerine
 Yazdığı Nazire Gazeller ile Tahmislerin
 Dilbilimsel Özellikleri

118

LINGVISTIKA**Samixon Ashirboyev**

O'zbek milliy transkripsiyasini yaratish yo'lida

131

Baxtiyor Abdushukurov

Kul tigin bitigtoshidagi ijtimoiy-siyosiy leksika

143

EDITOR IN CHIEF

Shuhrat Sirojiddinov

DEPUTY EDITOR IN CHIEF

Karomat Mullakhojaeva

EXECUTIVE SECRETARY

Ozoda Tojibaeva

EDITORIAL BOARD

Karl Rechl (Germany)

Isa Habibbeyli (Azerbaijan)

Seyhan Tanju (Turkey)

Almaz Ulvi (Azerbaijan)

Benedek Peri (Hungary)

Vahit Turk (Turkey)

Teymur Kerimli (Azerbaijan)

Eunkyung Oh (Korea)

Nazif Shahrani (USA)

Bakijan Tukhliev

Mukhammadjan Imomnazarov

Bilol Yujel (Turkey)

Kasimjan Sadikov

Zulkhumor Kholmanova

Mustafa O'ner (Turkey)

Nurboy Jabborov

Gaybullah Babayarov

Kimura Satoru (Japan)

Imran Ay (Turkey)

Aftandil Erkinov

Nadir Mamadli (Azerbaijan)

Rashid Zahidov

Atabek Juraboev

Bulent Bayram (Turkey)

Kuldosh Pardaev

Nodirbek Jurakuziev

Oysara Madalieva

Hilola Nazirova

CONTENTS**TEXTOLOGY****Oysara Madalieva**

Insights Into the History Of 'Ali Shīr Navā'ī's
Lyrics of the 1480s (Based on the manuscripts
Divānī jadīd or *Nawādir al-nihāya*) 4

Furqat Tukhtamuratov

Studying the manuscripts of "Gulshani Javid" 40

Parviz Izzatillayev

"Muhokamat ul-lughatayn" in the interpretation
of Iranian Navoi studies 57

LITERATURE**Tanju Seyhan**

Opinions on Ali Şir Nevâyî's 4 Ghazes with
Hired Redif and the Concept of Hired 72

Kemal Yavuz Ataman

Construction and Order of the Society in Nevâyî
Thought 102

Rıdvan Öztürk

Linguistic Characteristics of the Naziraz Ghazals
and Tahmis Written by Afghanistan Poet Alim
Labib to Nevaî Poems 118

LINGUISTICS**Samikhan Ashirbaev**

On the way to creating the Uzbek national
transcription 131

Bakhtiyar Abdushukurov

Socio-political vocabulary in the epitaph of
Kul-tigin 143

“Muhokamat ul-lugʻatayn” Eron navoiyshunoslari talqinida

Parviz Izzatillayev¹

Abstrakt

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari va uning forsiy tarjimasi oʻzaro qiyosiy oʻrganilgan. Tadqiqot natijasida, tarjima jarayonida Turxon Ganjaviyning yutuq va ayrim oʻrinlardagi nomuvofiqliklar ishonchli manbalarga tayangan holda, tahlilga tortilgan. Jumladan, Ganjaviyning tarjimasida baʼzi bir qisqartirilgan oʻrinlarning mavjudligi, M. Siddiq nashrida mazkur qisqartirishlarni oʻzi foydalangan nusxadan fors tiliga oʻgʻirgani, misollar keltirish, tahlil qilish yoʻli bilan isbotlab berilgan. Shuningdek, turkiy va forsiy sheʼrlar orasida ham baʼzi ixtiloflarning mavjudligi, biroq ularning matniga oʻzgartirishlar kiritmaganining sabablari oydinlashtirildi. “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari tarjimasining asliyatdan farq qiladigan jihatlaridan biri bu M. Siddiq tomonidan asar qismlarining mazmunidan kelib chiqib nomlagani, Eron navoiyshunoslari orasida “Muhokamat ul-lugʻatayn” asariga nisbatan ikki xil yondashuvning kuzatilishiga oid ilmiy dalillar keltirilgan.

Kalit soʻzlar: *Alisher Navoiy, Muhokamat ul-lugʻatayn, Turxon Ganjaviy, tarjima, transliteratsiya, zamonaviy Eron navoiyshunosligi, asliyat, tabdil.*

Kirish

Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lugʻatayn” asari turkiy va forsiy tillarning imkoniyatlari hamda afzalliklari qiyoslab oʻrganilgan birinchi asardir.

“Muhokamat ul-lugʻatayn” asari 1841-yilda “Tarixi muluki Ajam” asari bilan birga Parijda fransuz navoiyshunos olimi M. Katremer tomonidan nashr etiladi. Mazkur nashr kitobxonlarda katta qiziqish uygʻotgani bois 1845-yili Parijda ikkinchi marotaba chop etiladi. 1862-yilda Budapeshtda saqlanayotgan nusxa asosida nashr ettirilgan boʻlsa, 1937-yili Valad Chalabiy uni turkiy

¹ Izzatillayev Parviz Inoyatillayevich – filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: parvizisosoni@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5754-2690

Iqtibos uchun: Izzatillayev, P. I. 2024. “Muhokamat ul-lugʻatayn” Eron navoiyshunoslari talqinida”. *Oltin bitiglar* 1: 57 – 71.

tilidagi matni hamda turk tiliga o'girilgan variantini Istanbulda chop ettiradi.

Mazkur asar 1941-yili Raf'at Eshitmon tomonidan lotin alifbosida nashr yuzini ko'rgan. 1950-yilda Turxon Ganjaviy tomonidan fors tiliga o'girilib, Tehronda chop etiladi. Shu tarjima 1984-yilda ayrim o'zgartirishlar bilan Pokistonda ham nashr etiladi. "Muhokamat ul-lug'atayn" asari 1925-yilda Abdulhakim Gulmuhammadov tomonidan Ashxobodda ham chop etilgan. 1988-yilda esa Hamid Temur uni uyg'ur tilida Urumchida nashr etishga muvaffaq bo'ladi. Bu borada oxirgi tadqiqotlardan yana biri bu turk olimi Samo Borutchu Uzunder tomonidan amalga oshirilgan. U o'zining bu tadqiqotida dunyoda tanilgan to'rt nusxani bir-biriga solishtirib o'rganish orqali, asarning asl matnini shakllantirgan va lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish orqali nashr etgan. Shuningdek, asl turkiy matnga hozirgi turk tilidagi tarjimasini va muqaddimada o'zining tilshunoslik bo'yicha fikr-mulohazalarini ham ilova qilgan. Ushbu asar 1966-yilda R. Deveruks tomonidan igliz tiliga ham tarjima qilinib, nashr etilgan.

O'zbekistonda esa mazkur asar birinchi marotaba 1916-yilda Qo'qonda nashr etilgan bo'lsa, 1940-yilda P. Shamsiyev va O. Usmonovlar tomonidan Toshkentda chop etilgan. O'zbek navoiyshunoslari ushbu nashr bilan cheklanib qolmasdan mazkur asar yuzasidan izlanishlarni davom ettirganlar. Jumladan, P.Shamsiyev yana ikki marotaba: 1948, 1967-yillarda "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini nashrdan chiqaradi. Shuningdek, ushbu asar 2017-yilda Qosimjon Sodiqov va 2021-yilda esa Yusuf Tursunov tomonidan ham Toshkentda nashr yuzini ko'rdi.

Zamonaviy Eron navoishunosligining darg'asi - Muhammadzoda Husayn Siddiq "Muhokamat ul-lug'atayn" asarining chig'atoy tilidagi asl matn, lotin alifbosida berilgan transliteratsiya hamda ozar tiliga qilingan tabdili bilan birgalikda Tabrizdagi "Axtar" nashriyotida chop ettiradi. Bunda asarning forsiy tarjimasi sifatida 1950-yillarda Turxon Ganjaviy tomonidan tarjima qilingan matn aynan keltiriladi.

T. Ganjaviyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asaridan qilgan forsha tarjimasi bugungi kunga qadar Eronda ilk va yagona tarjima bo'lib turibdi. Ganjaviyning tarjimasida ba'zi bir qisqartirilgan o'rinlar mavjud bo'lib, Muhammadzoda Siddiq o'zining nashrida mazkur qisqartirishlarni o'zi foydalangan nusxadan fors tiliga o'girib, Turxonning tarjimasidan ajratib ko'rsatish maqsadida kvadrat qavs ichida keltiradi. Shuningdek, turkiy va forsiy she'rlar

orasida ham ba'zi ixtiloflar mavjud bo'lsa-da, ularning matniga o'zgartirishlar kiritmaydi. M. Siddiq Turxon Ganjaviyning forsiy tarjimasini matniga quyidagi o'zgartirishlarni kiritadi:

1) biror bir so'z yoki so'zlarni matnga kiritishga ehtiyoj tug'ilganida kvadrat qavs [] ichida beradi;

2) turkiycha so'zlarning to'g'ri variantini lotin imlosi bilan birgalikda forsiy tarjimaga kiritib, tarjima muallifi so'zlarini kitob oxirida joylashtirib, uni havolada ko'rsatib beradi. M. deb ko'satishdan maqsad, Turxon Ganjaviyning 1949-yildagi forsha tarjimasini nazarda tutilgan;

3) arabiy so'z va iboralarni kitobning "povaraqiho", ya'ni "havolalar" qismida sharhlaydi;

4) she'rlarning aruziy vaznlarini aniqlaydi.

Shu o'rinda navoiyshunoslarning, xususan, Eron navoiyshunoslarning "Muhokamat ul-lug'atayn" asariga bo'lgan munosabatlari to'g'risida to'xtalsak. Navoiyning bu asarni yozishdan maqsadini tadqiqotchilar turli xil talqin qilganlar. Asg'ar Dilbaripur, Matin Okos kabi bir guruh tadqiqotchilar Alisher Navoiyning bu asarini "milliy o'zlikni anglash va millatni sevishni tarannum etuvchi asar" [Turkoni porsiguy 1390, sh.19/126] sifatida ko'rsatganlar. Ammo bu guruh navoiyshunoslar "millat" va "milliy o'z-o'zini anglash" tushunchalari nisbatan yangi masalalar ekanligini va keyingi asrlarga taluqli ekanligini nazardan qochirgan ko'rinadilar. Chunki Alisher Navoiy zamonida yuqorida tilga olingan tushunchalar bugungi kunda anglashiladigan ma'nosida qo'llanilmagan. Boshqa bir guruh tadqiqotchilar esa Alisher Navoiyning mazkur asarda keltirgan barcha da'volarini o'rinli va to'g'ri deya baholaganlar. Bu kabi qarashlarning aksariyat tarafdorlari turkiy xalqlarning tadqiqotchilari, jumladan Eron ozariylari tadqiqotchilari qarashlarida ham o'z aksini topgan. Ozarboyjonlik tadqiqotchi Bekir Cho'ponzoda shu guruhga mansub tadqiqotchilardan bo'lib, u Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida aytgan barcha fikr-qarashlarini to'g'ri va haq deya biladi. Turkiyalik Husayn O'zgan esa "Muhokamat ul-lug'atayn" turkiy tilning himoyachisi bo'lib, unda Alisher Navoiy turk tilining fors tilidan afzalligini to'g'ri isbotlab bergan" deya ta'kidlaydi [Amir Nemati Limoi 1393, 143]. Eron ozariylardan bo'lgan M. Siddiq ham Alisher Navoiyning mazkur asarida bayon etgan qarashlarining tarafdorlaridan bo'lib, "Muhokamat ul-lug'atayn"da ilgari surilgan barcha qarashlarni o'rinli" deya zikr etadi [Amir Alisher Navoi 1387, 43].

Bu guruhga qarama-qarshi fikr bildirgan ikkinchi guruh esa Alisher Navoiyning "Muhokamat ul-lug'atayn"da ilgari surgan qarashlarini xom va tekshirilmagan tarzda bayon qilingan va uning turkiy tilning forsiy tilga nisbatan afzal degan qarashlarini hech qanaqasiga haqiqatga mos kelmasligini ta'kidlaydilar. Bunday qarashning tarafdorlaridan biri Eronlik mashhur olim Zabihulloh Safo bo'lib, Alisher Navoiy keltirgan dalillarni o'rinsiz deya ta'kidlab bu borada shunday deydi:

"این اشتباه از آن جا بدو دست داده بود که آن ترکی که وی مدعی برتری آن بر فارسی بوده، از همه نیروهای آماده زبان فارسی و عربی استفاده کرده و آن را بر بضاعت مزجات خود افزوده بود."

Tarjima: *"Uning forsiy tilidan turkiy tilni afzal deb bilgani, fors va arab tilining mavjud qudratidan foydalanganligida va uni o'zining andak qudratiga qo'shganidandir. Ana shu [omil] uning bunday xatolikka yo'l qo'yishiga yo'l ochib bergan"* [Zabehulloh Safo 1378, 148].

Tarjimashunos olim G.Salomov esa *"Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn"da turk (o'zbek) tilining fazilatlari haqida fikr yuritar ekan, bu bilan o'z ona tilini qanday bo'lmasin fors tilidan ustun qo'yishni mo'ljallagan emas, balki ba'zi jabhalarda uning ham o'z lisoniy afzalliklari borligini namoyish etish barobarida, bunda ham salmoqdor, chuqur badiiy asarlar, san'at obidalari yaratish mumkinligini nazariy tomondan isbotladi va amalda ko'rsatib berdi"* deya ta'kidlaydi [Саломов 1983, 20].

Bizningcha ham mazkur asarni yozish bilan Alisher Navoiy turkiy tilni forsiy tildan ustun qo'yish emas, balki turkiy tilda ham forsiy tilda yaratilgani kabi o'lmas asarlar yaratish mumkin degan qarashni ilgari surgan. O'zi turk bo'la turib, forsiyda ijod qiladigan shoirlarga turkiy tilning ham xuddi forsiy tilidagidek imkoniyatlarga ega ekanligini va bu imkoniyatlardan foydalanishni tavsiya beradi va o'zi namuna bo'lib buni ko'rsatib beradi desak adashmagan bo'lamiz.

"Muhokamat ul-lug'atayn" asari Eron navoishunoslaridan biri – Amir Ne'mati Limoiy tomonidan tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotchi Alisher Navoiy tomonidan ushbu asarda ilgari surgan qarashlarini birma-bir tahlilga tortib, har biriga alohida tarzda dalillar bilan javob beradi. Quyida uning Alisher Navoiyning faqat bir fikriga javobini keltiramiz va tahlil etamiz:

Asliyatdagi matn: Yana g'izo va har taom-ki, yesa bo'lur, *yeguluk* derlar va shu ichmak va har nimani-ki, ichsa bo'lg'ay, ichkulik derlar. Va sort elining ko'pi, balki barchasi *yemakni* ham va

ichmakni ham xo'rdan lafzi bila ado qilurlar [Навоий 2017, 38].

Turxon tarjimasida: "در ترکی به غذا و طعام، بیگولوک گویند؛ ولی اکثر مردم فارسی زبانان بل تمام آنان، خوردن و نوشیدن، هر دو را با مصدر خوردن بیان میکنند."

Alisher Navoiyning yuqorida keltirilgan gapiga Amir Ne'mati Limoiy quyidagicha javob beradi [Amir Alisher Navoi 1387, 70]:

"آنچه واقعیت دارد، فارسی زبانان برای نشان دادن مفهوم خوردن مایعاتی چون آب، علاوه بر فعل، خوردن، از کلمات به سان، نوشیدن و آشامیدن، نیز سود می جستند و کاربرد واژگان چنین دارای پیشینه ای دیرین در زبان فارسی است و این مهم از جستجو و کاوش در آثار فاخر فارسی مربوط به سده های پیشین به خوبی بر می آید. ابیات زیر نشانی آشکار بر نادرستی دعوی امیر علی شیر و درستی گفتار نگارنده است:
کیست حافظ تا ننوشد باده بی آواز رود،
عاشق مسکین چرا چندین تجمل بآیدش."

Tarjima: "Aslini aytganda forsiyzabonlar suv kabi suyuqliklarni "ichish" tushunchasini ko'rsatish uchun "xo'rdan" fe'lidan tashqari "no'shidan", "oshomidan" kabi so'zlardan ham foydalanib kelganlar va bu kabi so'zlar fors tilida ilgaridan ishlatilib kelingan. Bu so'zlarni oldingi asrlarda yozilgan forsiy asarlardan osonlik bilan topish mumkin. Quyidagi baytlar Amir Alisherning bu da'vosining to'g'ri emasligi va tadqiqotchining haq ekanligini ko'rsatadi:

Tabdil: *Kist Hofiz to nano'shad boda beovoz ravad,
Oshiqi miskin charo chandin tajammul boyadash"*
[Limoiy 1393,

152].

Ne'mati Limoiy Alisher Navoiydan oldin yashab o'tgan Farididdin Attor, Sa'diy Sheroziy, Xayyom, Jaloliddin Rumiy kabi fors shoirlari va ular ijodida uchraydigan "nushidan" va "oshomidan" fe'li qatnashgan yana 15 ta misol keltiradi. Biz ham Navoiydan oldin yashab ijod qilgan fors shoirlari devonlarini ko'zdan kechirganimizda ichish ma'nosini beradigan "xo'rdan" "yemoq"dan tashqari "no'shidan" va "oshomidan" fe'llari ishlatilib kelingani ayon bo'ldi. Jumladan, Xayyom ijodida quyidagi bayt uchraydi:

*May no'sh, ki umri jovidoni in ast,
Xud hosilat az davri javoni in ast*

[<https://ganjoor.net/khayyam/robaee/sh47>].

Ne'mati Limoiyning gaplarida jon bor, darhaqiqat fors tilida ichish tushunchasini berish uchun fors tilida "xo'rdan"dan tashqari "no'shidan" va "oshomidan" kabi so'zlar ham qo'llanilib kelingan va qo'llanilib kelinmoqda. Ammo hozirda ham forsiyda so'zlashadigan, jumladan, tojik xalqining suhbatiga nazar tashlansa, ichish

ma'nosini berish uchun "no'shidan" va "oshomidan"dan ko'ra "xo'rdan" "yemoq" fe'li ko'proq ishlatiladi. A. Navoiy ana shuni nazarda tutib shunday fikrni ilgari surgan bo'lishi ehtimoli mavjud. N. Limoiyning yuqoridagi fikriga tayanib, Alisher Navoiyning xatoga yo'l qo'ygan, deya ayta olmaymiz.

Shu o'rinda Muhammadzoda Siddiq nashrida forsiy tarjima qay tarzda keltirilgani haqida aniq tasavvur hosil bo'lishi uchun quyida bir misol keltiramiz:

[نعت]

سپاس هر متکلمی را که بلبل نطقش با ترنم انا افسح، زبان فصحاى عرب را که
گلپاىک بلاغت به گلشن سپهر می رسانیدند، ببست؛ و آوازه ی دعوی آنان را شکست.

[ترجمه]رباعی:

آن روز که هنوز قلم صنع،
آدم و عالم را رقم نزده بود
وی از خلقت خود دم زد
و صدای گنٹ نبیاً فافهم را درداد.

Tabdil:

"Na't

*Sipos har mutakallimero, ki bulbuli nutqash bo tarannumi
ana afsahu zaboni arabro, ki gulbongi balog'at ba gulshani sipehr
merasonidand, bubast va ovoza da'voi ononro shikast.*

Ro'boi [tarjima]:

On ro'z, ki hano'z qalami sun',

Odam va olamro raqam nazada bud.

Vay az xilqati xud dam zad

Va sadoi kuntu nabiyyan faafhamro dardod" [Navoi 1387, 52].

Muhammadzoda Siddiq nashr etgan "Muhokamat ul-lug'atayn" kitobi fasllarga ajratilgan bo'lib, mazkur asarning turkiy nusxasidan uni ozar tiliga tabdil qilib, forsiy tarjima faslidan so'ng joylashtiradi. Ikkala matnni fasllarga ajratib, ularni alohida-alohida tarzda kvadrat qavs [] ichida nomlab chiqadi. Ozar tiliga tabdil qilgani borasida nashr muallifi shunday deydi:

"در برگردان آذری، تلاش بر این بوده است که شیوه ی بیان متن و کلمات و الفاظ
به کار رفته در آن عیناً حفظ شود و فقط لهجه ی چاغاتایی به لهجه ی آذری تبدیل گردد
و حتی در املاى لغات اشعار نیز تصرف روا داشتیم ولی متن اصلی آن ها را در متن
فارسی آوردیم و در بخش آوانویسی به قرانت دقیق و فونولوژیک پرداختیم."

Tarjima: "Ozar tiliga tabdil qilishda matnning bayon uslubini aynan saqlashga harakat qildik, faqatgina chig'atoy lahjasini ozar lahjasiga o'zgartirdik. Hatto, she'rlardagi so'zlarning imlosiga ba'zi bir o'zgartirishlar kiritgan bo'lsak-da, uning aslini forsiy matnda keltiridik. Transliteratsiyada so'zlarning aniq talaffuzini berishga

imkoni boricha harakat qilindi" [Navoi 1387, 47].

"Majolis un-nafois" asarining Turxon Ganjaviy tomonidan qilingan tarjimasi va Muhammadzoda Siddiq tomonidan nashrga tayyorlanib Tehronda chop etilgan nusxasi "tahmidiya", ya'ni "hamd" bilan boshlanadi va "na't" bilan davom ettiriladi. Ammo ana shu yuqorida zikr etilgan "tahmidiya" va "na't" asarning P. Shamsiyev tomonidan nashrga tayyorlangan va 1967-yilda Toshkentda nashr etilgan nusxasida mavjud emas. Bundan ehtimol Porso Shamsiyev foydalangan nusxalarda mazkur qismlar mavjud bo'lmagandir deya xulosa chiqarish mumkin. Alisher Navoiyning 10 jildlik to'la asarlar to'plamidan (2013-y.) joy olgan va Q. Ergashev tomonidan nashrga tayyorlangan mazkur asarda "hamd" va "na't" qismlari to'la keltiriladi. Shu o'rinda "Muhokamat ul-lug'atayn"ning O'zbekistonda nisbatan yaqin yillarda nashr etilgan boshqa nashrlari xususida to'xtalib o'tsak. Mazkur asar 2017-yilda Q. Sodiqov tomonidan Toshkentda "Akademnashr" nashriyotida chop etiladi. Q. Sodiqov ushbu asarni qaysi qo'lyozmalar asosida nashr etganligi kitobning so'zboshi qismida shunday bayon qilingan: *"Asarni nashrga tayyorlashda uning To'pqopi qo'lyozma nusxasi asos qilib olindi, tayanch qo'lyozmada tushib qolgan yerlari Parij hamda Fotih qo'lyozmalaridan olib to'ldirildi. Shuningdek, asar matnini yaratishda Toshkent (1940, 1967), Anqara (1996) nashrlaridan ham foydalanildi"* [Навоий 2017, 3].

Bundan Q. Sodiqov asarni nashrga tayyorlashda, P. Shamsiyev tomonidan 1940 va 1967-yillarda Toshkentda hamda 1996-yilda Anqarada nashr etilgan asar variantlaridan, shuningdek, To'pqopi, Parij va Fotih qo'lyozmalaridan unumli foydalangan, tayanch manba sifatida esa To'pqopi nusxasini tanlagan degan xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Asar 2021-yilda Y. Tursunov tomonidan Toshkentda O'zR FA "Fan" nashriyotida chop etildi. Bu ish "Muhokamat ul-lug'atayn" asarinining yanada mukammal variantini yaratishga bo'lgan navbatdagi qadam bo'ldi. Ushbu nashrga qaysi manbalar asos vazifasini bajarganligi borasida muallifning o'zi shunday yozadi: *"... ishda Fotih nusxasi (I)ni tayanch nusxa sifatida belgiladik. Qolgan uch (I [Istanbul], P [Parij] va H [Haydarobod] nusxa esa yordamchi nusxalar vazifasini o'tadi. Fotih nusxasida mavjud kamchilik va xato o'rinlar (albatta, ular ko'p emas) bu nusxalarga ko'ra to'g'rilandi"* [Навоуӣ 2021, 22]. Biz "Muhokmat ul-lug'atayn" asarining Erondagi forsiy nashrini qiyosiy o'rganishda, mazkur asarning oxirgi yillarda nashr etilgan va oldingi nashrlardagi

anchagina xato va kamchiliklari tuzatilgan Q. Sodiqov¹ nashrini tayanch variantlar sifatida olishga qaror qildik. Ammo kezi kelganda Y. Tursunovning² nashriga ham yuzlandik. Endi bevosita matniy-qiyosiy tahlilga o'tamiz. Asar quyidagicha boshlanadi:

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

[Pybouï:]

الحمد لله الذي امتاز الانسان على سائر النخلوقات بشرف النطق و اللسان و اظهر من

عذوبت لسانه و حلاوت بيانه سكر الشكر و شهد الشهود و الامتنان

Ey so'z bila qilg'on ofarinish og'oz,

Insonni aroda aylagon mahrami roz.

Chun "kun fayakun" saffhasig'a bo'ldi tiroz,

Qilg'on ani nutq ila baridin mumtoz.

Subhonalloh, ne qudrati komiladurkim, insonni خمرت طينة آدم بيدى

karimasi mazmuni birla qobiliyyati berdi va ani karimasi mazmuni birla qobiliyyati berdi va ani
Al-mutakallim ismi mazhari qildi. To ul bu mazhariyyat sharafidin
jami'i maxluqotda sarafroz bo'ldi va bu tashrif bila barisidin imtiyoz
topti [Havouï 28,2017].

Turxon Ganjaviy tarjimasida:

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

الْحَمْدُ لِلَّهِ الَّذِي أَمَّاَزَ الْإِنْسَانَ عَلَى سَائِرِ الْخُلُوقَاتِ بِشَرَفِ النَّطْقِ وَ الْإِنْسَانِ وَ أَظْهَرَ

مِنْ عَذُوبَتِ لِسَانِهِ وَ حُلَاوَةِ بَيَانِهِ سَكْرَ الشُّكْرِ وَ شَهِدَ الشُّهُودَ وَ الْإِمْتِنَانَ.³

سبحان الله، اين چه قدرتی است که به انسان با مضمون کریمه ی خمرت طینة

آدم بیدی اربعین صباحا سزاواری علم آدم الاسماء كلها را داد و او را مظهر اسم "المتکلم"

گردید و وی بدین شرف نسبت به جمیع مخلوقات سرفراز گشت و بدین تشریف، از جمله امتیاز یافت.

Ko'rinib turganidek, asarni nashrga tayyorlagan M. Siddiq asar boshida keltirilgan hadisi qudsiyga havola berib, uning forsha tarjimasini kitob ilovasida keltiradi. Bu ishi bilan fors kitobxoniga kitobxonga hadis mazmuni bilan tanishish imkonini beradi va o'z navbatida o'quvchining hadis mazmunini qidirishga ketadigan vaqtini tejaydi. Bu ish asarda uchraydigan barcha oyat va hadislarga ham xosdir. Qayerda oyat va hadis uchragan bo'lsa, M. Siddiq uning mazmunini kitob ilovasida keltirib boradi. Bu uning tarjimadagi yutuqlaridan biri desak adashmaymiz. Tarjimon

¹ Bundan keyin "Q. Sodiqov nashri".

² Bundan keyin "Y. Tursunov nashri".

3 ای خدایی که جهان را به واسطه ی کلام آفریدی و انسان را در این میان محرم اسرار خود ساختی و از جمله ی خلق به شرف نطق برگزیدی (حدیث قدسی).

– T. Ganjaviy yuqorida keltirilgan o'zbekcha matnni fors tiliga ba holi qudrat tushunarli tarzda tarjima qilgan. Matnlarni solishtirib o'rganish natijasida, asl turkiy matnda berilgan faqatgina "... ne qudrati komildurkim..." qismidagi "komil" so'zi tarjimada berilmagan bo'lsa-da, asl muallifning aytmoqchi bo'lgan fikri to'la aks etgan. Ammo T. Ganjaviy foydalangan qo'lyozmada mavjud bo'lmaganidan bo'lsa kerak, yuqorida asl turkiy matnda keltirilgan ruboiy uning tarjimasidan joy olmagan.

Asliyatdagi matn:

"Takallum ahli xirmanining xo'shachini va so'z, durri samini maxzanining amini va nazm gulistonining andalibi nag'asaroyi, ya'ni Alisher ul-mutaxallis bi-n-Navoiy غفر ذنوبه و ستر عيوبه mundoq arz qilurkim, so'z durredurkim, aning dar'yosi ko'nguldur va ko'ngul mazharedur-kim, jomi'-i ma'oni-yi juzv-u kuldur. Andoqki, daryodin gavhar g'avvos vositasi bila jilva namoyish qilur va aning qiymati javharig'a ko'ra zohir bo'lur. Ko'nguldin dog'i so'z durri nutq sharafig'a sohib-i ixtisos vasilasi bila guzorish-u oroyish ko'rguzur va aning qiymati fahm¹ martabasi nisbatig'a boqa intishoru ishtihor topar. Gavhar qiymatig'a nechuk-ki, marotib asru ko'pdur, hattoki, bir diramdin yuz tumangacha desa bo'lur."

[Qit'a:]

Injuni olsalar mufarrih uchun,
Ming bo'lur bir diramg'a bir misqol.
Bir bo'lur ham-ki, shah quloqqa solur:
Qiymati mulk, ibrasi amvol [Навоий 2017, 29].

Turxon Ganjaviy tarjimasida:

اما بعد، چنین گوید خوشه چین اهل تکلم و امین مخزن درّ ثمین سخن و عندلیب
نغمه سرای گلستان نظم، اَعْنی علیشیر المتخلص به نوایی - غَفَر ذَنْبُوهُ وَ سَتَرَ عُيُوبُهُ - که:
دریای درّ سخن سخن دل است و مخزن دل جامع سعائی جزء و کل، همچنان که
گوهر از دریا به واسطه ی غَوَاص جلوه و نمایش پیدا میکند. و بهای آن به نسبت گوهر
ظاهر گردد، درّ سخن نیز به وسیله ی مرد سخندان به شرف گفتار آراسته شود و قیمت آن
– نظر به مرتبه ای – انتشار و اشتها یابد. چنان که بهای در و گوهر نیز به نسبت کیفی
اش از دره می تا صد دینار فزونی گیرد.
قَتعه:

چون جوهری را برای درمان مرضی خواهند،
هزار مثقال آن دره می نیرزد.
لیکن بهای در شاهواری که سر و گردن شهریاران را سزد،
از قیاس اندیشه بیرون است.

¹ Mazkur so'z Alisher Navoiyning 10 jildlik "To'la asarlar to'plami"da "fahm" (507 b.), ammo Y. Tursunov nashrida "ham" (27 b.) tarzida keltiriladi.

Tarjimaning asliyatdan farq qiladigan yagona jihati bu M. Siddiq tomonidan asar qismlarining ma'no-mazmunidan kelib chiqib nomlaganidadir. Jumladan berilgan yuqoridagi matnni "sarog'oz", ya'ni "kirish" deya nomlaydi. Bundan tashqari, tarjimon – Turxon Ganjaviyning asl nusxaning mazkur qismini aynan so'zma-so'z aks ettirishga intilganini ko'rish mumkin. Masalan, arabcha "takallum" so'zini aynan ishlatish o'rniga ushbu so'z ma'nosini ochib beradigan boshqa biron forscha muqobil so'z ishlatishi mumkin edi. Bunda Alisher Navoiyga formal tomondan emas, balki maqsad tomondan yondashilgan bo'lar edi. Shuningdek, asliyatdagi matnni fors tiliga tarjima qilgan T. Ganjaviy asarning quyidagi qismini noto'g'ri o'qigan ko'rinadi: *"a'ni Alisher almutaxallas bin-Navoiy..."*. Mazkur asarning O'zbekistonda chop etilgan barcha nashrlarida to'g'ri tarzda "ya'ni" shaklida keltiradi. O'zbekistonda chop etilgan asar variantlarini ishonch bilan to'g'ri deyishimizga sabab shuki, matn ma'nosidan kelib chiqilsa, T. Ganjaviy keltirgan "a'ni", ya'ni "qasd qilaman", "maqsad qilaman" unchalik ham mos tushmasligini, "ya'ni" esa matn ma'nosiga to'la mos tushishini ko'lamiz. Inchunin, "P. Shamsiyev, (1967) nashri"da *"Alisher almutaxallas bin-Navoiy..."* jumlasida Navoiydan keyin uch nuqta qo'yib ketilgan. P. Shamsiyev foydalangan nusxalarda mazkur qismi uringan yoki o'qilishi qiyin bo'lgan bo'lishidan uch nuqta qo'yilgan bo'lishi mumkin. Chunki "M. Siddiq nashri" hamda O'zbekistonda 1967-yildan keyin nashr etilgan asar variantlarida Porso Shamsiyev tomonidan tashlab ketilgan mazkur asar qismida *غُفِرَ ذُنُوبُهُ وَ سَتِرَ غُيُوبُهُ* duosi keltirilgan. Turxon Ganjaviy tomonidan amalga oshirilgan tarjimani nashrga tayyorlagan M. Siddiq fors kitobxoni o'qish davomida tushunishi qiyin bo'lishi mumkin bo'lgan so'z, ibora va duolarni kitob oxirida izohlagan va bu ishi bilan tarjima qiymatini yanada oshirgan. Jumladan, *غُفِرَ ذُنُوبُهُ* "duosini" *گناهانش بخشیده و عیب هایش پوشیده باد* "ya'ni "Gunohlari kechirilib, ayblari yashirin qolsin" tarzida tarjima qiladi [Amir Alisher Navoiy 1387, 53]. Tarjimon T. Ganjaviy asl nusxaning *"Takallum ahli xirmanining xo'shachini"* qismida keltirilgan "xirman" so'zini o'z tarjimasida aks ettirmagan bo'lsa-da, matn mazmuniga putur yetmagan. Qit'ani tarjima qilishga kelganda Turxon uni she'riy tarzda emas, balki nazmiy shaklda tarjima qiladi. Jumladan:

چون جوهری را برای درسان مرضی خواهند،

ya'ni, agar gavharni biror-bir kasallik uchun ishlatmoqchi bo'lsalar,

هزار مثقال آن درهسی نیرزد.

uning ming misqoli bir dirhamga ham arzimas.

لیکن بهای در شاهواری که سر و گردن شهریاران را سزد،
ammo shahriyorlarning bo'ynidagi qimmat durning bahosin,
از قیاس اندیشه بیرون است.

qiyoslab bo'lmas.

Ko'rinib turganidek, tarjimon qit'ani nazmda tarjima qilmagan bo'lsa-da, uni ma'nosini to'la-to'kis aks ettirishga harakat qilgan va bunga erishgan.

Asliyatdagi matn:

*So'z durrining tafovuti mundin dog'i beg'oyatroq¹ va marta-
basi mundin ham benihoyatroqdur. Andoqki, sharifidin to'lgan
badang'a ruhi pok yetar, kasifidin hayotliq tang'a zahri halok
xosiyati zuhur etar.*

Qit'a:

So'z gavharidurki, rutbasining

Sharhidadur ahli nutq ojiz.

Andinki erur xasis muhlik,

Ko'rguzguchadur Masih mo'jiz [Навоий 2017, 29].

Turxon tarjimasida:

«تنوع سخن هم بیرون از میزان تعقل و خارج از درجه ی تصور است، چنان که

سخنی، جان در قالب مرده دمذ نیز کلامی موجب کلال و ملال گردد.

قطعه:

مقام گوهر سخن چه والاست،

که اهل نطق نیز در بیان قدر آن ناتوان اند.

سخن سخیف، مهلک و مسموم است،

و سخن خوب، کار دم مسیحا می کند.»

[Amir Alisher Navoi 1387, 53].

Tarjimon mazkur asarni tarjima qilishda jumlalarining so'zma-so'z tarjima qilishga berilmasdan, uning ma'nosini aks ettirishga ham ko'proq e'tibor beradi. Shuningdek, ayrim so'z va iboralarni tashlab ketgan bo'lsada, matn ma'nosi u qadar o'zgarib ketmagan. Jumladan, yuqoridagi asl matnning "So'z durrining tafovuti mundin dog'i beg'oyatroq va martabasi mundin ham benihoyatroqdur." Mazkur qism tarjimon tomonidan juda chiroyli: "So'z rang-barangligi ham tafakkur mezonidan va tasavvur darajasidan tashqaridadur" tarzida tarjima qiladi. Tarjimon asl matndagi "durr" so'zini tarjima qilmasdan qoldirib ketadi. Ammo shu so'zni "durr" yoki "gavhar" deya o'zining tarjimasiga kiritganida edi, tarjimaning qiymati yanada oshgan bo'lar edi. Muallifning qit'asi esa tarjimon tomonidan nazmiy usulda quyidagicha tarjima qilinadi:

¹ Ushbu so'z "Q. Sodiqov nashri"da "bag'oyat" tarzida keltiriladi. Ammo matn ma'nosiga "beg'oyatroq" so'zi ko'proq mos keladi.

مقام گوهر سخن چه والاست،

So'z gavharining maqomi naqadar yuksak,

که اهل نطق نیز در بیان قدر آن ناتوان اند.

Nutq ahli ham uning qadri bayonida notavondurlar.

سخن سخیف، مهلک و مسموم است،

Aqli noqisning so'zi xatarlidur,

و سخن خوب، کار دم مسیحا می کند.

Va yaxshi so'z Masihoning nafasi kavidurur.

Garchi tarjimon muallifning qit'alarini nazmiy usulda emas, nasriy usulda tarjima qilgan bo'lsa-da, uning ma'nosini to'lig'icha aks ettirishga jon-jahdi bilan harakat qilganligi ayon bo'ldi.

Endi bevosita Alisher Navoiyning bu asarni yozishidan maqsadi ifodalangan matn qismlarini tahlilga tortamiz.

Asliyatdagi matn: "Ammo turkning ulug'din kichigiga degincha va navkardin begiga degincha sort tilidin bahramanddurlar. Andoqkim, o'z xurd ahvolig'a ko'ra ayta olurlar. Balki ba'zi fasohat-u balog'at bila ham takallum qilurlar. Hatto turk shu'arosikim, forsiy til bila rangin ash'or-u shirin guftor zohir qilurlar. Ammo sort ulusining arzolidin ashrofig'acha va omiysidin donishmandig'acha hech qaysi turk tili bila takallum qila olmaslar va takallum qilg'onning ma'nisin ham bilmaslar" [Навоий 2017, 32].

Turxon tarjimasida:

«ترکان از هر طبقه که باشند از زبان فارسی بهره دارند، نه تنها به فارسی، مناسب حال خود سخن می گویند، بلکه بعضی از این طایفه ها با فصاحت و بلاغت هر چه تمامتر از عهده ی بیان مطلب دقیق بر می آیند. حتی شعرای ترک به زبان فارسی اشعار رنگین و گفتار شیرین می سرایند.

ولی هیچ یک از فارسیان اعم از عالی و دانی، و بی دانش و دانشور به ترکی سخن گفتن نتوانند و از فهم معنی آنچه به ترکی بیان کرده شود، نیز درمانند.

[Amir Alisher Navoi 1387, 56-57].

Yuqoridagi tarjimaning asliyatdan farq qiladigan jihatlaridan biri bu M. Siddiq tomonidan matnning ma'nosidan kelib chiqib uni "turkiy va forsiy" deb nomlanganidir. Shuningdek, tarjimon asl turkiydagi "Ammo turkning ulug'din kichigiga degincha va navkardin begiga degincha..." matn qismini aynan – so'zma-so'z tarjima qilmasdan, uni "qaysi tabaqadan bo'lsalar-da, turklar..." tarzida umumlashtirib tarjima qilgan, ammo aytish mumkinki, tarjimonning bunday yo'l tutishi tarjima ma'nosiga putur yetkazmagan.

"Tarjimon o'zi tarjima qilayotgan asar muallifining ijodiy yordamchisi bo'lib, u aytilmoqchi bo'lgan g'oyaviy maqsadni to'la va puxta ishlash orqali o'z tilida yaratishi, o'zini muallif bilan bir qatorda asar uchun mas'ul sanashi, tarjima asarning boshqa

tildagi to'liq nusxasi ekanligini unutmaslik zarur" -, deyiladi [Ўзбекистонда бадий таржима тарихи 1985, 35]. Turxonning tarjimasini tahlil qilib, uning g'oyaviy maqsadni to'la va puxta ishlab, o'z tilida yaratganligi, o'zini muallif bilan birga asar mas'uli sanaganligi va tarjima – asarning o'zga tildagi to'liq nusxasi ekanligini unutmaganligining guvohi bo'ldik. Bu bilan tarjimon Alisher Navoiyning mazkur asarini yuqori saviyada fors tiliga tarjima qilgan va o'z oldiga qo'ygan maqsadiga to'la erisha olgan deya bemaolol ayta olamiz.

Umuman olganda, Eron navoiyshunoslari orasida "Muho-kamat ul-lug'atayn" asariga ikki xil yondashuv kuzatiladi. Birinchi yondashuv tarafdorlari Alisher Navoiyning mazkur asarda keltirgan barcha da'volarini o'rinli va to'g'ri deya baholaganlar. Ularning qatorida Asg'ar Dilbaripur, Muhammadzoda Siddiq kabi olimlarni sanab o'tish mumkin. Ikkinchi yondashuv tarafdorlari esa shoirning barcha da'volarini xom va tekshirilmagan tarzda bayon qilingan deya ta'kidlaydilar. Bu yo'nalish tarafdorlari sifatida Zabihulloh Safo, Amir Ne'mati Limoiy kabi navoisihunoslarni qayd etish joiz.

Adabiyotlar

- Алишер Навоий. 2017. *Муҳокамат ул-луғатайн*. Қосимжон Содиқов таҳлили, табдили ва талқини остида. Тошкент: Академнашр.
- Алишер Навоий. 2021. *Муҳокамат ул-луғатайн, илмий танқидий матн*. Тузувчи ва нашрга тайёрловчи Ю. Турсунов. Тошкент: ЎзРФА "Фан".
- Саломов Ғ. 1983. *Таржима ташвишлари*. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти.
- Ўзбекистонда бадий таржима тарихи*. 1985. А. С. Пушкин номидаги тил ва адабиёт институти. Тошкент: Ўзбекистон ССР "Фан".
- Alisher Navoiy. 2013. *To'la asarlar to'plami (O'n jildlik)*. 9-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- امير عليشير نوايي. محاکمه اللغتين، مقدمه و تصحيح و تحشيه حسين محمدزاده صديق، تهران: اختر، ۷۸۳۱.
- امير نعمتی لیمایی، بررسی زندگی سیاسی و واکاوی کارنامه علمی، فرهنگی، اجتماعی و اقتصادی امیر علیشیر نوايي، تهران: وزارت امور خارجه، اداره نشر، ۳۹۳۱.
- ترکان پارسىگوى، دفتر اول، انکارا: رايژنى فرهنگى جمهورى اسلامى ايران، ۰۹۳۱.
- متين آکاس. شخصيت تاريخى، ادبى نوايي و مسائل انسانى در شعر هاى نوايي، ۲۰۰۲ م.
- موسسه مطالعات ترکى، ش ۹۱. اصغر دليرى پور
- ضبيح الله صفا. تاريخ ادبيات در ايران، ج ۳، تهران: فردوسى، ۸۷۳۱.
- <https://ganjoor.net/khayyam/robaee/sh47>

"Muhokamat ul-lughatayn" in the interpretation of Iranian Navoi studies

Izzatillaev Parviz¹

Abstract

This article compares Alisher Navoi's work «Muhokamat ul-lughatayn» and its Persian translation. As a result of the research, Turkhan Ganjavi's achievements and inconsistencies in some places during the translation process were analyzed, relying on reliable sources. In particular, the existence of some abbreviated places in Ganjavi's translation, the fact that M. Siddiq translated these abbreviations into Persian from the copy he used, is proved by giving examples and analysis. Also, the existence of some differences between Turkic and Persian poems, but the reasons why they did not make changes to their text, were clarified. One of the aspects of the translation of the work "Muhokamat ul-lughatayn" that differs from the original is that it was named by M. Siddiq based on the meaning of parts of the work. Among Iranian Navoi studies, there is scientific evidence of the observation of two different approaches to the work "Muhokamat ul-lughatayn".

Key words: *Alisher Navoi, Muhokamat ul-lughatayn, Turkhan Ganjavi, translation, transliteration, modern Iranian Navoi studies, originality, transformation.*

References

- Alisher Navoiy. 2017. *Muhokamat ul-lug'atayn*. Qosimjon Sodiqov tahlili, tabdili va talqini ostida. Toshkent: Akademnashr.
- Alisher Navoiy. 2021. *Muhokamat ul-lug'atayn, ilmiy tanqidiy matn*. Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi Y. Tursunov. Toshkent: O'zR. FA "Fan".
- Salomov G'. 1983. *Tarjima tashvishlari*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi "Adabiyot va san'at nashriyoti.
- O'zbekistonda badiiy tarjima tarixi*. 1985. A. S. Pushkin nomidagi til va adabiyot instituti. Toshkent: O'zbekiston SSR "Fan".
- Alisher Navoiy. 2013. *To'la asarlar to'plami (O'n jildlik)*. 9-jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Amir Alisher Navoi. 1387. *Muhokamat ul-lugatajn*. Muqaddima va tashehu

¹ Parviz I. Izzatillaev – Doctor of Philosophy (PhD) in philology, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alishera Navoi.

E-pochta: parvizisosoni@gmail.com

ORCID ID: 0000-0002-5754-2690

For citation: Izzatillaev, P. I. 2024. «Muhokamat ul-lughatayn» in the interpretation of Iranian Navoi studies. *Golden Scripts* 1: 57 – 71.

- tahshiyai Husayn Muhammadzoda Siddiq. Tehron: Axtar.
- Amir Nemati Limoi. 1393. *Barrasii zindagii sijosi va vokovii kornomai ilmi, farhangi, izhtimoi va iqtisodii Amir Alisher Navoi*. Tehron: Vazorati umuri xorizha, idorai nashr.
- Turkoni porsiguy, daftari avval*. 1390. Onkoro: Rojzani farhangii Zhumhurii Islomii Eron.
- Matin Okos. 2002. *Shaxsijati torixi, adabii Navoi va masoili insoni dar sherhoi Navoi*. Muassisai Asghar Dilbaripur. Mutolioti turki, sh. 19.
- Zabehulloh Safo. 1378. *Torixi adabiyot dar Eron*, zh. 4. Tehron: Firdavsi.
- <https://ganjoor.net/khayyam/robaee/sh47>

MAQOLA TAQDIM QILISH TALABLARI

"Oltin bitiglar - Golden Scripts" jurnali - Sharq adabiyoti va madaniyati, ijtimoiy-ma'naviy hayoti, tilshunoslik va aniq fanlar, dinshunoslik va ilohiyotshunoslikka oid ahamiyatli qo'lyozma manbalar, xalq og'zaki ijodi namunalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar xulosalarini chop etishga mo'ljallangan.

I. Maqola taqdim etish uchun umumiy talablar

Qo'lyozmalar yil davomida o'zbek, ingliz, rus, fors, shuningdek, turkiy tillarda topshirilishi mumkin. Agar muallif o'z maqolasini jurnalning muayyan sonida nashr etmoqchi bo'lsa, unda qo'lyozma jurnal nashridan kamida besh oy oldin taqdim etishi kerak.

Qo'lyozmalar MS Word (.doc) formatida (oltinbitiglar@gmail.com) elektron pochta yuborilishi kerak. Iqtiboslar va izohlar bo'yicha MS Word menejerini qo'llash lozim.

Barcha qo'lyozmalar muallif (mualliflar) haqidagi qisqacha ma'lumot bilan yuboriladi.

Asosiy matn *Times New Roman* shrifti, 14 hajm, satr oralig'i 1 interval, hoshiyalar chapdan 3 sm, o'ngdan 1,5 sm, yuqori va pastdan 2 sm bo'lishi kerak.

Maqolalar *The Chicago Manual of Style, 16th Edition* formatida shakllantirilishi lozim.

Maqola matni 3 000–5 000 so'zdan iborat bo'lishi kerak.

100–150 so'zdan iborat o'zbek va ingliz tillaridagi abstrakt (annotatsiya) va 5–10 so'zdan kam bo'lmagan kalit so'zlar (o'zbek va ingliz tillarida). Abstrakt maqolaning maqsadi, metodologiyasi va natijalarini qisqacha ifodalashi kerak.

Adabiyotlar ro'yxati 5 sahifadan oshmasligi lozim.

Kitobga taqriz (ingliz yoki boshqa tillarda bo'lishi mumkin) 1500 so'zdan oshmasligi talab etiladi.

Taqriz formati: 1) sarlavha: kitob nomi, muallif (mualliflar), nashr qilingan shahar: nashriyot nomi, nashr yili, sahifasi soni. Narxi, ISBN raqami, (qattiq/yumshoq muqova); 2) taqriz so'ngida: taqrizchining F.I.O., ish joyi, pochta manzili.

II. Maqola bo'limlarini rasmiylashtirish

Maqola nomi – normal harflarda, to'q bo'yoqda, 16 hajm.

Maqola nomi o'zbek va ingliz tillarida (agar maqola boshqa tillarda yozilgan bo'lsa, maqola yozilgan til va ingliz tilida) beriladi.

Maqola sarlavhasidan keyin sahifaning o'ng chetida muallifning ism-familiyasi yozilib, oxiriga yulduzcha (*) ishorasi qo'yiladi va sahifa pastida muallif haqida quyidagi qisqa ma'lumotlar beriladi: F.I.O., ilmiy daraja va unvon; ish joyi; e-pochta va ORCID ID (raqami).

Maqola kirish, asosiy qism bo'limlari va xulosadan tashkil topadi.
Maqola bo'limlari sarlavhasi – *yotiq*, 14 hajm.

III. Maqolada tarjimalardan foydalanish

Boshqa tillardagi matn yoki boshqa manbalar tarjimoni aniq ko'rsatilishi kerak. Agar matn maqola muallifi tomonidan tarjima qilingan bo'lsa, u holda "tarjima muallifniki" shaklida beriladi.

Rasmiy nashrdan olingan tarjima-matn tahrir qilinmaydi.

Zarur holatda tarjima matnga sana, turli diakritik belgilar va boshqa elementlar kiritilishi mumkin.

Tarjima qilingan matn olingan manba nomi asl holicha beriladi. Zarur deb topilsa, uning nomi qavs ichida berilishi mumkin.

Geografik nomlar tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Tashkilotlar nomi tarjima qilinmaydi va asl shaklida beriladi.

Davr nomi rasmiy qabul qilingan shaklda beriladi.

IV. Ko'chirma va tarjima parchaning berilishi

Manbadan olingan ko'chirma parcha asosiy matndan 1 qator tashlab ajratiladi, satr oralig'i 1 interval, markazda, 12 hajmda yoziladi.

Ko'chirmaning tarjiması qavs ichida () satr boshidan yozilishi kerak. Bunday ko'chirma *Times New Roman* shrift, 12 hajm, normal yozuvda beriladi.

V. Havola va izohlar berish

Manbaga havola matn ichida to'rtburchak qavsda [] beriladi. Havola qilingan manbalar bir nechta bo'lsa, ular nuqtali vergul (;) bilan ajratiladi.

Izohlar tegishli sahifa pastida, tartib raqami bilan joylashtiriladi.

VI. Qo'lyozma (toshbosma) manbalar va nashr etilgan asarlar bibliografiyasi

Bibliografiyada muallif yoki asar nomi satrboshidan, boshqa barcha qatorlari abzasdan yoziladi. Adabiyotlar *bibliografiyada* o'zbek lotin alifbosi tartibida ko'rsatiladi.

6.1. Qo'lyozma va toshbosma manbalar bibliografiyasi

Qo'lyozma yoki toshbosma manbalarni bibliografiyada o'zi yozilgan grafikada berish maqsadga muvofiq. Lotin alifbosidagi transliteratsiyasini berish ham mumkin. Ba'zan qo'lyozma asarning nomi muallif ismidan oldin yozilishi ham mumkin.

Muallif nomi. Ko'chirilgan asr (agar mavjud bo'lsa). Asar nomi. Qo'lyozma (toshbosma): saqlanayotgan joy, inventar raqam.

Xondamir. XV asr. Makorim ul-axloq. Qo'lyozma: O'zFASHI, № 742.

Matnda qo'lyozma (toshbosma)ga havola berish:
[Xondamir, Makorim, 17³]

7.2. Kitoblar uchun

Bibliografiyada:

Familiya, ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011. *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Familiya kitob nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 2011, 99]

Agar bir muallifning bir yilda nashr qilingan kitoblaridan foydalanilgan bo'lsa, bibliografiyada kitobning nashr yili o'zbek lotin alifbosi harflari bilan ajratilib ko'rsatiladi.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(a). *Alisher Navoiy: manbalarning qiyosiy-tipologik, tekstologik tahlili*. Toshkent: Akademnashr.

Sirojiddinov, Shuhrat. 2011(b). *O'zbek adabiyotining falsafiy sarchashmalari*. Toshkent: Akademnashr.

Matnda kitobga havola:

[Sirojiddinov 2011(a), 99]

Ikki muallif tomonidan yozilgan kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi.

Vohidov, Rahim va Husniddin Eshonqulov. 2006. *O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi*. Toshkent: Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.

Matnda kitobga havola:

[Familiya va Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Vohidov va Eshonqulov 2006, 52]

Agar kitobning uch va undan ortiq muallifi bo'lsa, bibliografiyada barcha mualliflarning ismi to'liq yoziladi. Bunday kitobga havola qilinganda, birinchi muallifning ismi yozilib, davomida *va boshqalar* deb ko'rsatiladi:

[Familiya va boshqalar nashr yili, sahifa raqami]
[Vohidov va boshqalar 2010, 847]

Kitob yoki to'plam maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Kitob yoki to'plam nomi*, Ism Familiya, Ism Familiya muharrirligida, maqola sahifasi raqamlari. Shahar: Nashriyot.

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Navoiy ijodida Ya'juj-Ma'juj obrazi." *Alisher Navoiy va XXI asr*, Shuhrat Sirojiddinov muharrirligida, 130 – 133. Toshkent: Mashhur-press.

Matnda kitob yoki to'plam maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]
[Ismoilov 2020, 131]

Elektron shaklda nashr qilingan kitoblar uchun:

Elektron kitobning bir nechta formati bo'lsa, bibliografiyada foydalanilgan format ko'rsatiladi. Elektron kitobning internet manzili (URL) hamda shu manba olingan sana ko'rsatilishi lozim.

Elektron kitobni bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. *Kitob nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. URL. Foydalanilgan sana.

Adizova, Iqboloy. 2020. *Thinker poetess of the East*. Germany: Lambert Academic Publishing. <https://www.lap-publishing.com/>. 12.07.2019.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Adizova 2020, 11]

Ikki muallif tomonidan yozilgan elektron kitobni bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism va Ism Familiya. Nashr yili. *Kitobning nomi*. Shahar: Nashriyot nomi. Internet adres (URL).

Sirojiddinov, Shuhrat va Sohiba Umarova. 2017. *O'zbek matnshunosligi qirralari*. Chikago: Chikago universiteti nashriyoti. <http://press-pubs.uchicago.edu/founders/>.

Matnda elektron kitobga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sirojiddinov 1987, 19-hujjat]

7.3. Jurnal maqolasi uchun

Chop etilgan jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari.

Alimuhamedov, Rixsitilla. 2018. "Qadimgi turk-moniy adabiyoti." *Oltin bitiglar* 1: 65 – 76.

Matnda jurnal maqolasiga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Alimuhamedov 2018, 70]

Elektron jurnal uchun:

Elektron jurnal uchun jurnalning DOI manzili ko'rsatiladi. Agar DOI manzili mavjud bo'lmasa, internet adresi ko'rsatilishi kerak (URL). DOI – bu o'zgarmas ID bo'lib, internet tarmoqlarining elektron adreslari tizimiga ulangan, ya'ni manbani boshqaruvchi <http://dx.doi.org/> manzildir.

Elektron jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi* jurnal soni: maqola sahifalari. DOI adres (yoki URL).

Ismoilov, Ilyos. 2020. "Saddi Iskandariy" dostonidagi adabiy ta'sir va o'ziga xoslik masalasi xususida." *O'zbekistonda xorijiy tillar* 3: 229 – 235. doi: 10.36078/1596780050.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Ismoilov 2020, 231]

7.4. Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal uchun

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasiga havola matn shaklida beriladi (masalan, Muhammadjon Imomnazarovning 27.02.2005dagi "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida chop etilgan maqolasida aytilganidek...); odatda, bunday manbalar umumiy adabiyotlar ro'yxatida keltirilmaydi. Agar keltirilsa, kitoblarga qo'yiladigan talablarga asosan beriladi.

Agar onlayn maqolaga havola berilayotgan bo'lsa, uning internet manzili (URL), maqola olingan sana ko'rsatilishi kerak.

Gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish tartibi:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Gazeta-Jurnal nomi*, nashr sanasi. Imomnazarov, Muhammadjon. 2005. "Jomiy "Xamsa" yozganmi?." *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, January 25.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Imomnazarov 2005, 4]

Elektron gazeta yoki ilmiy-ommabop jurnal maqolasini bibliografiyada berish:

Familiya, Ism. Nashr yili. "Maqola nomi." *Jurnal nomi*, nashr sanasi. Internet adres.

Sobirov, Ergash va Akmal Kenjayev. 2010. "Milliy qadriyat va globallashuv". *New York Times*, 27.02. <http://www.nytimes.com/28/us/28health.html>.

Matnda maqolaga havola:

[Familiya nashr yili, sahifa raqami]

[Sobirov va Kenjayev 2010, 17]

Maqola so'ngida foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosi tartibida beriladi. Adabiyotlar ro'yxati ikki qismdan iborat bo'lishi, birinchi qismda foydalanilgan adabiyot chop etilgan grafikada yuqorida ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtirilishi, ikkinchi qismda esa barcha foydalanilgan adabiyotlar o'zbek lotin alifbosida berilishi talab qilinadi. Misol uchun:

Adabiyotlar

Баранов, Х.К. 1958. Арабско – русский словарь. Москва: Наука.

Adabiyotlar

Baranov, X.K. 1958. Arabsko – russkiy slovar. Moskva: Nauka.

Maqolani rasmiylashtirish talablarining ingliz tilidagi variantini "The Chicago Manual of Style, 16th Edition" qo'llanmasi yoki <https://www.chicagomanualofstyle>. havolasidan ko'rib olishingiz mumkin.

Ushbu son "Oltin bitiglar" tahririyatida sahifalandi.
Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib
ko'chasi 103-uy.
e-mail: oltinbitiglar@gmail.com
Tel.: +99894 697-97-04

Bosishga 30. 03. 2024-yilda ruxsat etildi
Qog'oz bichimi 70x100 1/16/.
nashriyot bosma tabog'i: 8

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0940 raqami bilan ro'yxatdan
o'tgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi
tomonidan filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan
doktori (DSc) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi
lozim bo'lgan ro'yxatga kiritilgan.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga
qaytarilmaydi.

"Mashhur-Press" bosmaxonasida chop etildi.
Buyurtma №0440 Adadi 300 dona.
Bosmaxona manzili:100129 Toshkent, Markaz 15, 1-uy. Tel.:
+99890 900 75 77,
+99894 659 94 62